



TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGNING O'RNI

Murodova Nozinaoy Mavlon qizi

Buxoro viloyati Jondor tumanidagi 12-maktab psixologi

ANNOTASIYA : Maqolada psixolog faoliyatining vazifalari ta'lismizda amaliy psixologik xizmat sohasidagi asosiy vazifalari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: psixologik ma'rifat, targ'ibot va tashviqot, psixologik targ'ibot va tashviqot ishlarining shakllari: ma'ruza, suhbat, seminar-treninglar, o'zini boshqarish.

KIRISH

Amaliyotchi psixolog, masalan maktab amaliyotchi psixologi maktabning pedagogik jamoasini, o'quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarni egallashga jalgan etish, ularning psixologik va ma`naviy madaniyatini oshirish maqsadida turli mashg'ulotlar, o'quvlar, ma'ruzalar uyushtirib boradi, bu uning psixologik tashviqot va targ'ibot ishi hisoblanadi. Maktab amaliyotchi psixologi bu ishlarni to'g'ri tashkil etish uchun ta'limgarayonida psixologning majburiyatlarini bilishi lozim.

Psixolog ta'lismizda faoliyat yuritar ekan tashviqot vazifalarini ham amalga oshiradi. Bunda u pedagogik kengashlarda, ota onalar majlislarida, o'quvchilar oldida ma'ruza qilish orqali psixologik bilimlarni targ'ibot va tashviqot qiladi. Shu bilan birgalikda OAVda, ya'ni ilmiy va ommabop jurnal, gazetalarda maqolalar chop ettirish hamda radio va televideniyeda psixologik bilimlarni ommalashtirish bilan shug'ullanadi. Psixologik ma'rifat va tashviqotning metodologik vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarga eng oddiy psixologik bilimlarni berish va ularning bu bilimlarni egallashiga erishish, tengdoshlari va kattalar bilan shaxslararo munosabatlarga kirishish, o'zlarining shaxsiy sifatlari va xarakter



xususiyatlari, qobiliyatlar, layoqiyatlariga baho bera olish bilan bog'liq bo'lgan, bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;

- o'quvchilarda o'quv jaroyoniga, o'qituvchilar va tarbiyachilar bilan muloqotga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- o'smirlar, yigit va qizlarning jinsiy tarbiyasi, ularning oila psixologiyasi va oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiyena va kasalliklarning oldini olish sohasidagi bilimlarni egallashiga erishish;
- -har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirishda pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning psixologik kompetentligini oshirish;
- individual suhbatlar, ochiq darslar, seminarlar va maslahatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni targ'ib qilish.
- Psixolog maktabda jon deb ishlab, o'zining ish vaqtini hamda ishdan bo'sh vaqtini maktabda o'tkazsa-da, ba'zan o'qituvchilarning «psixologimiz o'zi nima qilyapti?», «Psixolog maktabda bo'ladi-mi o'zi?» degan kinoyali gaplarini eshitish mumkin. Agar psixolog o'z faoliyatini o'zini reklama qilishdan boshlamasa, o'qituvchilarning bunday kinoyalarini ko'proq eshitishi mumkin. Maktabda olib boriladigan ish rejasi va jadvalni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Psixolog darslarga qatnashadigan, o'qituvchilar bilan suhbatlashadigan, psixologik tadqiqotlar o'tkazadigan, maslahatlar beradigan va psixotreninglar o'tkazadigan kunlar va soatlarni aniq belgilab olishi va jadvalini ommaga e'lon qilishi zarur. Psixologning ish vaqtini haqida kamida uchta joyda: psixolog xonasasi eshigida, o'qituvchilar xonasida hamda maktabga kiraverishda reklama ilingan bo'lishi maqsadga muvofiqli. O'quvchilar sizdan «psixoterapevt kim u psixologdan nimasi bilan farq qiladi?», «Nevropatolog va ekstrasens kim, psixologdan nimasi bilan farq qiladi?» kabi savollarni berishlari mumkin. Bunday savollarga javob berishga tayyor turing. O'smir va o'spirinlarda insonlarning kundalik hayotidagi maxsus faktlarni hikoya qilib berib, psixologiyaga qiziqtirishlarini orttirishlari mumkin. Bundan tashqari «o'yin



testlaridan» foydalanib ham psixologiyaga qiziqishini orttirish mumkin. O‘quvchilarga «O‘zingizni boshqara olasizmi», «balki noyob odamdirsiz?» kabi testlar doim qiziq bolaveradi.

Bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan a’maliy psixologlarning ishlari natijadorligi asosan 5 ta yo‘nalish bilan belgilanadi, jumladan: psixologik xizmat ko‘rsatish faoliyatini maktabni hozirgi zamon psixologiya fani yutuqlari bilan ilmiy-uslubiyot bo‘yicha ta’minlashga, insonning shaxsiy va intellektual (aqliy) jixatdan rivojlanishini diagnostika qilishga, ta’lim va tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlashga, eng muhimi mavjud kamchilik va defektlarning oldini olish (psixoprofiaktika)ga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozimligi ko‘rinadi.

XULOSA.

Shunday qilib, quyidagi xulosalarga kelamiz. Maktabda Amaliy psixologiya bo‘yicha ma’ruza o‘qish, trening o‘tish oson emas. Ko‘p omillarni hisobga olish zarur: auditoriyaga moslashish, ularning tilida gapirish, ma’ruza tinglovchilarga qiziqarli bo‘lishiga hamda ularning ehtiyojlarini qondirishga harakat qilish zarur. Ma’ruzalarni psixologik jihatdan pozitiv qilib o‘qishga harakat qilish kerak, o‘z obrazini chiroqli, ochiq qiziquvchan, boy hayotiy tajribaga ega inson sifatida namoyon qilish kerak, shaxsiy fikrni aytishga intilish zarur, o‘zingiz haqingizda o‘rinli gapirib berishingiz mumkin. Har qanday auditoriyani sizning psixolog, inson sifatidagi namunali hayotingiz, his tuyg‘ularingiz, yutuqlaringiz qiziqtiradi. Agar tinglovchilar sizni komil inson, yetuk mutaxassis sifatida ishonch hosil qilsalar, siz ma’ruzada beradigan ma’lumot va bilimlarni astoydil qabul qiladilar. Ma’ruzangizni faol va hissiy qilib boshlashga intilib, ularning diqqatini faollashtirib, birgalikdgi ruhiy suhbatga chorlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abramova G.S. Prakticheskaya psixologiya. Moskva, «Akademicheskiy proyekt», Moskva, 2001.
2. Akimova M.K., K.M.Gurevich. Psixologicheskaya diagnostika. Moskva, 2005.



**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**

3. Burmenskaya G.V., Karabanova O.A., Liders A.G.
Vozrastnopsixologicheskoye konsultirovaniye. Moskva, MGU, 1990.
4. Dubrovina I.V. Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya.
SanktPeterburg, Piter, 2004.
5. Malenova A.Yu. Vvedeniye v professiyu v sxemax i tablisax. Omsk,
Izd-vo OmGU, 2004.
6. K.Aliyeva Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. o'quv
uslubiy majmua. T-2018